



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

ONALIK PSIXOLOGIYASI VA O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Kasimova Xulkar Atabayevna

Ma'mun universiteti psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologiya fanida onalik fenomenini o'rganishning turli nazariy va amaliy yondashuvlari keng yoritilgan. Unda onalikning murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatidagi mohiyati tahlil qilinib, uning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida onalik xulq-atvorini boshqaruvchi biologik hamda ijtimoiy mexanizmlar ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: onalik, onalik xulq-atvori, onalik fenomeni, onalik qadriyati, biologik mexanizmlar, ijtimoiy omillar.

Abstract: This article comprehensively examines various theoretical and practical approaches to the study of motherhood within the field of psychology. Motherhood is analyzed as a complex socio-psychological phenomenon, and the main factors influencing its formation and development are explored. In addition, the study provides a scientific analysis of the biological and social mechanisms regulating maternal behavior.

Key words: motherhood, maternal behavior, phenomenon of motherhood, value of motherhood, biological mechanisms, social factors.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются различные теоретические и практические подходы к изучению феномена материнства в психологии. Анализируется сущность материнства как сложного социально-психологического явления, а также исследуются основные факторы, влияющие на его формирование и развитие. Кроме того, в рамках исследования научно обоснованно проанализированы биологические и социальные механизмы, регулирующие материнское поведение.

Ключевые слова: материнство, материнское поведение, феномен материнства, ценность материнства, биологические механизмы, социальные факторы.

KIRISH

Bugungi kunda onalik faqat biologik jarayon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, onalik xulq-atvorining shakllanishi, uning psixologik mexanizmlari hamda ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda onalik fenomenini kompleks yondashuv asosida o'rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu yondashuv onalikni biologik, psixologik va ijtimoiy omillar integratsiyasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kechayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, oila institutining modernizatsiyasi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda onalik fenomeniga bo'lgan ilmiy va amaliy qiziqishni sezilarli darajada oshirmoqda. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi kengayishi, ularning mehnat bozorida ishtiroki ortishi hamda oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi onalikning an'anaviy tushunchasini yangi sharoitda qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy oilalarda farzand tarbiyasi jarayonining murakkablashuvi, psixologik stress omillarining kuchayishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zgarishi onalarning emotsional holati va psixologik farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa onalikni faqat biologik yoki tabiiy jarayon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonda oilani mustahkamlash, onalar va bolalar salomatligini himoya qilish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash hamda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ham onalik masalalarining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, onalik fenomenini o'rganish nafaqat psixologiya fanida, balki sotsiologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari kesimida ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.



Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar onalik xulq-atvorining shakllanishi, ona–bola munosabatlarining psixologik xususiyatlari hamda onalarning stressga chidamliligi va moslashuv mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa onalik fenomenini kompleks, ya'ni biologik, psixologik va ijtimoiy omillar integratsiyasi sifatida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mamlakatimiz sharoitida onalik masalalarining dolzarbligi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi hamda shaxsning psixologik farovonligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida xorijiy va rus psixologlari tomonidan onalikning quyidagi muhim jihatlari o'rganila boshlandi. Jumladan, onaning bola bilan erta ontogenezdagi o'zaro munosabati N.N. Avdeyeva, G.V. Skoblo, homiladorlik davrida ayolning emotsional holati masalalari A.S. Batuyev, A.I. Zaxarov, onalikdagi deviatziyalar omillari va shart-sharoitlari V.I. Brutman, O.V. Bajenova, A.Ya. Varga, ayolning ota-onalikka o'tish bilan bog'liq shaxsiy o'zgarishlari O.A. Karabanova, S.Yu. Meshyeryakova va boshqalar tomonidan ilmiy-psixologik jihatdan tadqiq qilingan.

Onalik fenomeniga bag'ishlangan ko'pchilik ishlar mualliflari Sigmund Freud, Karen Horney, John Bowlby, Donald Winnicott, Melanie Klein, Mary Ainsworth kabi xorijiy psixoanalitik nazariyalarga tayanadilar.

Onalikdagi qiyinchiliklarni o'rganishda mualliflar, avvalo, homiladorlik va erta onalik davrida ayol xulq-atvorida ongsizlik va instinktlar namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadilar. Zamonaviy jamiyatda turli madaniy onalik modellari bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila modeli, bolalik haqidagi tasavvurlar va muayyan madaniyatda qabul qilingan qadriyatlar M. Grossman va E. Margolis fikricha farzand ko'rishga bo'lgan munosabatga ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda va xorijda o'tkazilgan onalik muammolariga oid tadqiqotlarni tahlil qilish onalik xulq-atvori motivatsiyasini o'rganish eng istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Onalik xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy va biologik mexanizmlar, xususan qadriyatlar hamda instinktlar, homiladorlik davrida ayolning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayolning mazkur psixologik holati esa, o'z navbatida, homiladorlik va tug'ruq jarayonining fiziologik kechishiga, shuningdek, homila va yangi tug'ilgan chaqaloqning salomatligi hamda umumiy holatiga bevosita ta'sir etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Psixologiyada onalikni tadqiq etishning asosiy jihatlari to'xtalib o'tsak. Psixologiya fanida onalik va u bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar mazmunan keng qamrovli bo'lib, turli nazariy konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Mavjud ilmiy izlanishlarni umumlashtirish natijasida onalik psixoiijtimoiy fenomen sifatida asosan ikki muhim nuqtai nazar asosida talqin qilinishi aniqlanadi:

1. Bolaning sog'lom va to'laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi omil sifatida;
2. Ayol shaxsining psixologik va shaxsiy sohasining muhim tarkibiy qismi sifatida.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu yondashuvlarning mazmunini kengroq yoritib o'tamiz. Birinchi yondashuv doirasida onalik ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bu kabi tadqiqotlarda onalikka xos psixologik sifatlar, onalik xulq-atvorining xususiyatlari hamda ularning madaniy, ijtimoiy, evolyusion, fiziologik va psixologik jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Mazkur yondashuv asosida amalga oshirilgan tadqiqotlarda bir nechta mustaqil ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

I. Onalikning madaniy-tarixiy jihatlari

Onalikning madaniy-tarixiy jihatlari I.S. Kon, M.S. Radionova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Ushbu yondashuvda onalik tarixiy jihatdan shakllangan ijtimoiy hodisa sifatida qaralib, uning mazmuni har bir tarixiy davrda jamiyatning madaniy va ijtimoiy talablari ta'sirida o'zgarib borishi ta'kidlanadi. Jumladan, Elizabet Badinter ma'lumotlariga ko'ra, onalik mehri turli tarixiy bosqichlarda turlicha mazmun kasb etgan tushuncha hisoblanadi ^[10]. Ya'ni, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy qadriyatlar va oilaviy munosabatlar tizimi o'zgarishi bilan onalikka bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida jamiyatda "bolaga yo'naltirilganlik" (detosentrizm), ya'ni bolani oilada eng asosiy markaziy shaxs sifatida ko'rish g'oyasiga nisbatan tanqidiy qarashlar kuchaygan ^[6]. Bu jarayon asosan ikki muhim ijtimoiy tendensiya bilan bog'liq bo'lgan.

*Birinchi*dan, ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni kengayib, ularning ijtimoiy faolligi va mustaqilligi ortgan.

*Ikkinchi*dan, bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ayrim vazifalar asta-sekin maxsus ta'lim muassasalari, bog'chalar va mutaxassislar zimmasiga o'ta boshlagan.

Natijada jamiyatda bolaga bo'lgan munosabat hamda ota-onalarning, xususan, onalarning tarbiyaviy roli haqidagi qarashlar o'zgarishga uchragan.

Shuningdek, M. Mid va M. Grossman tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu sohada muhim ahamiyatga ega. Ularning ishlarida turli madaniy muhitlarda onalik xulq-atvori, bolaga munosabat hamda tarbiyaviy vazifalarning qanday taqsimlanishi qiyosiy tarzda o'rganilgan.

II. Onalikning biologik jihatlar

Mazkur yo'nalish doirasidagi tadqiqotlarda ona tomonidan ta'minlanadigan shart-sharoitlar bola rivojlanishining fiziologik hamda stimulli muhitini tashkil etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Bunda onalikning fiziologik, motivasion va xulqiy mexanizmlari shakllanishining evolyusion determinantlarini o'rganishga alohida ilmiy ahamiyat qaratiladi. Ayrim tadqiqot yo'nalishlarida esa biologik va psixologik yondashuvlarning integratsiyalashuvi kuzatiladi.

Ushbu tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarga birlashtirish mumkin:

1. Etologik tadqiqotlar

Etologik yondashuvda onalik hodisasi asosan evolyusion-biologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Bu yondashuvga ko'ra, ota-onaning (xususan, onaning) farzand rivojlanishiga sarflaydigan kuchi, vaqti va energiyasi "ota-onalik hissi" sifatida baholanadi. Ya'ni, bola rivoji uchun qancha resurs sarflanishi va bu resurslarning biologik hamda xulq-atvoriy jihatdan qanday ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi ^[9].

Shuningdek, etologik tadqiqotlarda ota-onalik xulq-atvorining shakllanishi evolyusiya jarayonida qanday rivojlanganligi, ya'ni bu xulq-atvorning biologik ildizlari va moslashuv mexanizmlari o'rganiladi ^[12]. Bunda ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tasodifiy emas, balki biologik jihatdan shakllangan adaptiv tizim sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ota-ona va bola o'rtasidagi xulq-atvor signallari (masalan, bola yig'isi, ona mehr-muhabbati, himoya reaksiyalari) o'zaro moslashuvni ta'minlaydigan mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Bu signallar orqali ularning o'zaro aloqasi mustahkamlanib, bolaning yashab qolishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Umuman olganda, mazkur yondashuvda ona va bola munosabatlari biologik moslashuvning universal tizimi sifatida ko'rib chiqiladi va onalik xulq-atvorining kelib chiqishi evolyusion jarayonlar bilan bog'liq holda izohlanadi.

2. Onalikning fiziologik va psixofiziologik jihatlar

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi juda keng bo'lib, asosiy e'tibor gormonal fon va emosional holatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Ilmiy qarashlarga muvofiq, gormonal fon ona organizmining bola bilan o'zaro ta'sir jarayoniga nisbatan sensitivligini ta'minlovchi biologik zaminni shakllantiradi. Biroq homiladorlik hamda erta onalik davrida ayolning o'z psixoemosional holatini qanday qabul qilishi va interpretatsiya qilishi uning individual-shaxsiy xususiyatlari, homiladorlikning subyektiv ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy va oilaviy vaziyat xususiyatlari bilan bevosita shartlangan hisoblanadi ^[3].

3. Qiyosiy biopsixologik tadqiqotlar

Mazkur yo'nalishda hayvonlar va insonlarda onalik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar hamda ular asosida "onalik instinkti"ning mohiyati va mexanizmlari haqida shakllangan nazariy qarashlar o'rganiladi.

Qiyosiy-psixologik yondashuv nuqtayi nazaridan "onalik instinkti" muammosi V.A. Vagner tomonidan tahlil qilingan bo'lsa, keyinchalik ushbu masala N.A. Tix ishlarida ham rivojlantirilgan ^[12]. Ushbu tadqiqotlarda onalik xulq-atvorining biologik ildizlari, uning evolyusion rivojlanish qonuniyatlari hamda inson onaligi va hayvonlardagi ota-onalik xulqi o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar tahlil qilinadi.

III. Onalikning psixologik jihatlar

Onalikning psixologik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham bir qator mustaqil ilmiy yo'nalishlar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Fenomenologik yondashuv

Mazkur yondashuv doirasida onaning funksiyalari, uning xulq-atvor xususiyatlari, emosional kechinmalari, psixologik ustanovkalari, kutishlari va boshqa individual-psixologik xususiyatlari atroflicha tavsiflanadi. Ayniqsa,



onalik xulq-atvori uslublari, onalik munosabati va onalik pozitsiyasining turlarini ajratishga qaratilgan tadqiqotlar keng tarqalgan. Homiladorlik davridagi ayol holatini kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda esa uning onalikka muvaffaqiyatli moslashuvi hamda bola rivojlanishi uchun adekvat shart-sharoitlarni ta'minlash bilan bog'liq turli omillar hisobga olinadi. Jumladan, ayolning shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribasi, nikoh munosabatlariga moslashuv darajasi, o'z onasining onalik modeli, madaniy, ijtimoiy va oilaviy xususiyatlar, shuningdek, jismoniy va psixik salomatlik holati kabi omillar tahlil qilinadi^[1; 11].

2. Psixologik-pedagogik yo'nalish

G.I. Brexman ta'kidlashicha, ota-onalarning, ayniqsa, onalarning psixologik-pedagogik madaniyatini yuksaltirish zarurati dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq tug'ruqqa tayyorgarlikning turli amaliyotlari bola rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini yorituvchi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas. Bu borada L.F. Obuxova va O.A. Shagrayeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot^[6] muayyan istisno hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari esa ushbu sohadagi holat kutilganidek ijobiy emasligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda xorijiy amaliyotda oilaga yo'naltirilgan psixoterapiya keng qo'llanilayotgan bo'lib, unda homiladorlik davrida ota va oilaning boshqa a'zolari ham psixologik jarayonlarga jalb etiladi. Shuningdek, oilaviy juftliklarni farzand tug'ishi va uni tarbiyalashga psixologik jihatdan tayyorlash dasturlari ham keng tatbiq etilmoqda^[5; 7].

Bundan tashqari, homilador ayollar hamda oilaviy juftliklar uchun bola rivojlanishiga qulay sharoitlarni optimallashtirish maqsadida psixologik korreksiya va psixologik tayyorgarlik usullari ishlab chiqilmoqda. Ushbu yondashuvlar, asosan, "ongli ota-onalik" konsepsiyasiga tayanadi.

3. Psixoterapevtik yo'nalish

Mazkur yo'nalish doirasida onaning psixologik xususiyatlari bola psixik rivojlanishidagi buzilishlar manbai sifatida tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqotlar, avvalo, psixik rivojlanishdagi kechikish va buzilishlar, bolalar psixiatriyasi, ijtimoiy moslashuv muammolari, shuningdek, bolalar va o'smirlardagi psixologik qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan^[1]. Bunda, ayniqsa, onalik munosabatining deviant shakllari bola rivojlanishiga, jumladan, go'daklik davridagi psixik taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Ona xususiyatlarining bola psixik rivojlanishiga ta'siri hamda unda turli rivojlanish og'ishlarining shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish jarayonida onalik munosabatining tipologiyasi ishlab chiqilgan. Mazkur tipologiyalarda onalar nafaqat bolaga bo'lgan munosabat xususiyatlariga ko'ra, balki "onalik instinkti"ning ifodalanish darajasi^[2] yoki "avlodni davom ettirish instinkti"ning rivojlanganlik darajasi^[4] asosida ham tasniflanadi.

Onalikni o'rganishga doir tadqiqotlarning ikkinchi yo'nalishi esa onalikni ayol shaxsiy sohasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv doirasida quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Onalik ayolning jins-yosh va shaxsiy identifikatsiyasi bosqichi sifatida tahlil qilinib, bunda ayol shaxsining rivojlanishi, reproduktiv siklning turli davrlariga xos psixologik va fiziologik xususiyatlar (hayotning boshqa bosqichlaridan farqli ravishda) tadqiq etiladi. Bunday tadqiqotlar turli psixologik yondashuvlar doirasida amalga oshiriladi. Jumladan, psixoanaliz, gumanistik psixologiya, shaxs psixologiyasiga oid boshqa nazariy yo'nalishlar, psixiatriya, psixofiziologiya, etologiya, kross-madaniy tadqiqotlar hamda qiyosiy psixologiya kabi sohalarda mazkur muammo atroflicha o'rganilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlarda so'rovnoma, intervyu, suhbat, psixofiziologik va projektiv metodlar, kuzatuv kabi turli ilmiy metodlardan foydalaniladi^[13; 14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Onalik fenomenini o'rganishda biologik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni integratsiyalovchi kompleks tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda, homiladorlik va erta onalik davridagi ayollarning psixologik holatini aniqlash hamda ularga psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Ota-onalarning, ayniqsa, onalarning psixologik-pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan trening va psixoprofilaktik dasturlarni ta'lim hamda tibbiyot tizimiga keng joriy etish lozim. Oila va onalik muammolarini tadqiq etishda milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish hozirgi davr sharoitida juda muhimdir.

"Ongli ota-onalik" konsepsiyasini targ'ib qilish orqali oilalarda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va bola tarbiyasida muvozanatli yondashuvni rivojlantirish zarur. Ayniqsa, nogiron farzandni tarbiyalayotgan onalar bilan ishlashda oilaga yo'naltirilgan psixoterapevtik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баженова О.В., Баз Л.Л., Копыл О.А. Готовность к материнству: выделение факторов, условий психологического риска для будущего развития ребенка // Синапс. - 1993. - № 4. - С. 35-42.

2. Гарбузов В.И. Практическая психотерапия. - СПб.: АО "Сфера", 1994. - 320 с.
3. Гормональная регуляция размножения у млекопитающих / под ред. К. Остин, Р. Шорт. - М.: Мир, 1987. - 384 с.
4. Захаров А.И. Ребенок до рождения. - СПб.: СОЮЗ, 1998. - 256 с.
5. Коваленко Н.П. Перинатальная психология. - СПб.: Ювента, 2000. - 320 с.
6. Кон И.С. Ребенок и общество. - М.: Педагогика, 1988. - 270 с.
7. Леус Т.В. Материнство - опыт трех поколений. Психологическое сопровождение беременной женщины. - М.: Изд-во ИП РАН, 2000. - 214 с.
8. Кон И.С. Социология личности. - М.: Политиздат, 1984. - 148 с.
9. Обухова Л.Ф., Шаграева О.А. Семья и ребенок: психологический аспект. - М.: Жизнь и мысль, 1999. - 176 с.
10. Психотерапия: от теории к практике: материалы Второй Всероссийской учебно-практической конференции по психотерапии (Москва, 16-21 июня 1997 г.). - М., 1997. - 280 с.
11. Симонов П.В. Мотивированный мозг. Высшая нервная деятельность и естественные основы общей психологии. - М.: Наука, 1987. - 272 с.
12. Скобло Г.В., Дубовик О.Ю. Система "мать - дитя" в раннем возрасте как объект психопрофилактики // Социальная и клиническая психиатрия. - 1992. - № 2. - С. 75-78.
13. Тих Н.А. Предыстория общества. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1970. - 312 с.
14. Филиппова Г.Г. Материнство: сравнительно-психологический подход // Психологический журнал. - 1999. - Т. 20. - № 5. - С. 81-88.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.